



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 64 sahifa,  
1-oktyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik*  
*Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik*  
*Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor*  
*Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor*  
*Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)*  
*Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)*  
*Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)*  
*Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*  
*Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)*  
*Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)*  
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*  
*Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)*  
*Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti*  
*Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)*  
*Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)*  
*Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent*  
*Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori*  
*Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari*  
*Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
<b>Tursunova Ozoda Abdullayevna</b>	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
<b>Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich</b>	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI .....	18
<b>Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li</b>	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
<b>Sobitova Shaxnoza Shokir qizi</b>	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI .....	27
<b>Tulyaganova G.O.</b>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
<b>Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna</b>	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI .....	36
<b>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</b>	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI .....	41
<b>Azimov.J.S., Melibayeva R.N.</b>	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
<b>Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi</b>	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	47
<b>Kurbonov Munis Umirbekovich</b>	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
<b>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</b>	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI .....	56
<b>Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li</b>	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI.....	60
<b>Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi</b>	

# PROFIL ORTIDAGI “MEN” RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI

## Azizova Shodiya Utkur qizi

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi  
E-mail: shodiyaazizova2014@gmail.com  
ORCID: 0009-0004-9088-853X

## Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi

Alfraganus universiteti Psixologiya kafedrası v.b dotsenti  
psixologiya fanlari bo'yicha (PhD).

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy insonning ijtimoiy tarmoqlarda o'zini turlicha shakllarda namoyon qilishi, “haqiqiy men” va “virtual men” o'rtasidagi tafovut, shuningdek, ushbu tafovutning psixologik oqibatlari ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Virtual niqoblar, ijtimoiy solishtirish, shaxsiyatning parchalanuvi va raqamli dissonans kabi hodisalar zamonaviy yoshlar ongida qanday psixologik bosim va identitet muammolarini yuzaga keltirayotgani empirik va nazariy yondashuvlar asosida yoritiladi. Maqolada shuningdek, raqamli ijtimoiy muhitda shaxsning o'zini anglash jarayoniga ta'sir etuvchi kognitiv va emotsional omillar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** raqamli shaxsiyat, virtual “men”, identitet ziddiyati, dissotsiatsiya, raqamli konformizm, psixologik dissonans, ijtimoiy solishtirish.

**Abstract:** This article examines the multifaceted self-presentation of modern individuals on social networks, focusing on the discrepancy between the “real self” and the “virtual self,” and the psychological consequences of this divergence from a socio-psychological perspective. Phenomena such as virtual masks, social comparison, personality fragmentation, and digital dissonance are analyzed to reveal how they create psychological tension and identity crises among contemporary youth. The study also explores cognitive and emotional factors influencing self-awareness and identity construction in the digital environment.

**Key words:** digital identity, virtual self, identity conflict, dissociation, digital conformity, psychological dissonance, social comparison.

**Аннотация:** В данной статье анализируются различные формы самопрезентации современного человека в социальных сетях, различие между «реальным Я» и «виртуальным Я», а также психологические последствия этого расхождения с позиции социально-психологического подхода. Рассматриваются такие явления, как виртуальные маски, социальное сравнение, фрагментация личности и цифровой диссонанс, а также их влияние на сознание современной молодежи, приводящее к психологическому напряжению и кризису идентичности. В работе также исследуются когнитивные и эмоциональные факторы, влияющие на процесс самопознания личности в цифровой среде.

**Ключевые слова:** цифровая идентичность, виртуальное «Я», конфликт идентичности, диссоциация, цифровой конформизм, психологический диссонанс, социальное сравнение.

## KIRISH

Axborot asrida inson faqatgina real hayotda emas, balki raqamli makonda ham o'z o'rnini izlamoqda. Instagram, TikTok, Telegram, Facebook kabi ijtimoiy platformalar endilikda insonning shunchaki muloqot maydoni emas — ular shaxsiyat namoyon etiladigan, o'zini tanitish, ideal versiyasini yaratish va boshqalar nigohida “men”ni qurish maydoniga aylangan. “Profil ortidagi men” — bu insonning o'zini qanday ko'rsatish istagining mahsuli, ammo bu obrazlar real shaxsiyatdan uzoqlashgan sayin, psixologik ziddiyatlar kuchayib boradi. Ushbu maqola aynan shu ichki bo'linish, dissonans va ruhiy iztiroblarni yoritishga qaratilgan.

## MAVZUGA OID DABIIYOTLAR SHARHI

“Virtual men” — bu foydalanuvchining ijtimoiy tarmoqlarda yaratgan obrazidir. U ongli ravishda yaratiladi: estetik suratlar, iloji boricha mukammal “bio”, tahrirlangan hikoyalar, trendli kontent — bularning barchasi “asl men”



emas, balki boshqalarga ko'rsatish uchun yaratilgan versiyadir. Psixologlar buni "ijtimoiy konstruksiyalashgan shaxsiyat" deb atashadi.

Sherry Turkle (2011) bu holatni "biz sun'iy menlar yaratamiz, keyin esa o'sha menlarga o'zimiz ishonib qolamiz", deya ta'riflaydi.

Profil tanlovi — ixtiyoriy niqob

Profil rasmi, bio yozuvi, post tanlovi — bularning har biri shaxsiyatga oid psixologik tanlov bo'lib, inson o'zini qanday ko'rsatishni xohlayotganini ifodalaydi. Bu esa insonning asl "men"i bilan boshqa odamlarga mo'ljallangan "ideal men"i o'rtasida tafovut paydo qiladi. Bu tafovut ko'pincha psixologik diskomfort keltirib chiqaradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'p shahsiyatlilik va ichki ziddiyat. Raqamli dissotsiatsiya

Ko'p hollarda inson real hayotda sokin, jur'atsiz bo'lsa, ijtimoiy tarmoqda jonli, hazilkash, o'zini bemaol tutadigan obrazni yarata oladi. Bu psixologiyada "ongli dissotsiatsiya" deb ataladi — ya'ni inson o'zini ongli ravishda bir nechta rolga ajratadi. Bunday parchalanuvchi identitetlar doimiy davom etsa, shaxsning o'zini qadrlashi, ichki uyg'unligi va ruhiy barqarorligi izdan chiqadi.

Psixologik izoh: Bu holat "rol o'ynovchi men" sindromiga olib keladi — inson o'zini kimligini esdan chiqaradi va doimiy obraz saqlash bosimida yashaydi.

Ideal "men" sindromi

Raqamli platformalarda mukammallikka intiluvchi obrazlar ustunlik qiladi. Ideal tana, ideal turmush tarzi, doimiy xursandchilik aks etgan postlar orqali foydalanuvchi o'zining "super versiyasi"ni yaratadi. Ammo bu ideal obrazga real hayotda yetolmaslik depressiv holat, yetishmovchilik kompleksi va o'zidan norozilikni yuzaga keltiradi.

Carl Rogers nazariyasiga ko'ra, "ideal men" va "haqiqiy men" o'rtasidagi tafovut ruhiy noqulaylik va nevrozlarning asosiy sabablaridan biridir.

Ijtimoiy psixologik mexanizmlar

Foydalanuvchi o'zini boshqalar bilan solishtirish orqali baholaydi. Bu ijtimoiy solishtirish doimiy bosim yaratadi: "u mendan ko'proq layk olgan", "uning hayoti go'yo mukammal", "menga hech kim e'tibor bermayapti" kabi ichki monologlar, o'zini qadrsiz his qilishga olib keladi. Festinger (1954) bu holatni "doimiy o'zaro baholash ehtiyoji" deb ta'riflagan.

Raqamli konformizm

Odamlar ko'pincha o'z postlarini auditoriyaga moslab tahrirlaydi, trendga ergashadi, shaxsiy istak emas, algoritm kutgan kontentga moslashadi. Bu esa konformizm — o'z qadr-qimmatini ijtimoiy ko'rsatkichlar (layk, ko'rish, izoh) orqali o'lchash holatini yuzaga keltiradi.

Profil ortidagi "men"ning psixologik oqibatlarini. Psixologik holat ta'siri.

Dissonans Real va virtual "men" tafovuti ongda barqarorlikni yo'qotadi Laykga bog'liqlik Tashqi e'tiborga qaramlik kuchayadi, ichki motivatsiya so'nadi. Raqamli yolg'izlik Ko'p obunachi bo'lsa ham, chin munosabat yo'qligi his etiladi

Ruhiy charchash Kontent yaratishga majburiyat, "doim ko'rinishda bo'lish" zo'riqishi, shaxsiylik inqirozi, o'ziga bo'lgan ishonch pasayadi, shaxsiyatda izolyatsiya kuchayadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli muhitda zamonaviy inson bir vaqtning o'zida bir nechta rol va obrazlarni boshqarishga majbur. Har bir profil — bu niqob, har bir post — bu o'zini tanitishga urinish, har bir stori esa virtual sahnadagi kichik aktyorlik bo'lagidir. Ushbu rollarning ko'pligi, tarmoqlardagi ideal obrazlar ortidan quvish, algoritmlar talabiga moslashish esa ongda psixologik ziddiyat, emotsional charchoq va o'zlik inqirozini keltirib chiqaradi.

Maqolada tahlil qilinganidek, inson real hayotda bir xil, lekin raqamli makonda bir nechta "men"ga aylanib boradi. Bu esa ichki o'zlikni parchalaydi, shaxsiyatni bo'lib tashlaydi va insonni o'z hayotini tomosha qilayotgan aktyorga aylantiradi. Raqamli "erkinlik" — aslida ichki izolyatsiya, ijtimoiy solishtirish va tashqi tasdiqqa qaramlikni kuchaytiradi.

Shu sababli, "profil ortidagi men" — bu shunchaki texnologik hodisa emas, balki hozirgi avlod ongidagi eng keskin ruhiy sinov bo'lib, u nafaqat psixologik salomatlik, balki shaxsiy barqarorlik, o'zlikni anglash va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Kelajak psixologiyasi uchun bu masalani chuqurroq o'rganish — o'zlikni saqlash va raqamli jamiyatda shaxsiyat barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Bauman, Z. (2003). Liquid Modernity.
2. Rogers, C. (1961). On Becoming a Person.
3. Goffman, E. (1959). The Presentation of Self in Everyday Life.
4. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other.
5. Festinger, L. (1954). A Theory of Social Comparison Processes.
6. Türk Psikoloji Dergisi (2022). Gençlerde Dijital Benlik Algısı Üzerine Bir İnceleme.
7. Boyd, D. & Marwick, A. (2014). Networked Privacy and Identity Performance on Social Media.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.